

NAVOIYNING “TARIXI MULUKI AJAM” ASARIDA SHOH ISKANDAR

*Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti Sharq sivilizatsiyasi  
va tarix fakulteti antropologiya  
va etnologiya yo‘nalishi 2-bosqich  
talabasi Usanova Muxlisa  
Ilmiy rahbar: Abirov Valisher*

**Annotatsiya:** *G‘azal mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiyni barchamiz buyuk shoir va yozuvchi sifatida taniymiz, ulug‘laymiz. Uning “Badoye ul-bidoya”, “Xamsa” asarlari orqali ko‘proq taniymiz. Uning tarixga oid “Tarixi anbiyo va hukomo”, “Tarixi muluki Ajam”dir. “Tarixi mulkumi Ajam” asari qadimgi Eron hukmdorlariga bag‘ishlanadi. Maqolada “Tarixi muluki Ajam” asaridagi Iskandar haqidagi ta’riflarga to‘xtalamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *Alisher Navoiy, Ajam, Kayumars, Tahmuras, Faridun, Afrosiyob, “Hayrat-ul abror”, “Saddi Iskandariy”, Iskandar, Aristotel,*

**Abstract:** *We all know and honor Mir Alisher Navoi, the Sultan of Ghazal, as a great poet and writer. We know more about his works "Badoye ul-bidoya" and "Khamasa". His works on history are "Tarihi anbiyo wa hukomo" and "Tarihi muluki Ajam". The work "Tarihi Mulkum Ajam" is dedicated to the rulers of ancient Iran. In the article, we will focus on the descriptions of Iskandar in the work "Tarihi Muluki Ajam".*

**Key words:** *Alisher Navoi, Ajam, Kayumars, Tahmuras, Faridun, Afrosiyob, "Hayrat-ul Abror", "Saddi Iskandari", Iskandar, Aristotle,*

**Аннотация:** *Все мы знаем и чтим Мир Алишера Навои, султана Газали, как великого поэта и писателя. Больше известно о его произведениях «Бадое ул-бидоя» и «Хамса». Его работы по истории - «Тарихи анбийо ва хукомо» и «Тарихи мулуки Аджам». Произведение «Тарихи Мулькум Аджам» посвящено правителям древнего Ирана. В статье мы остановимся на описаниях Искандара в произведении «Тарихи Мулуки Аджам».*

**Ключевые слова:** *Алишер Навои, Аджам, Каюмарс, Тахмурас, Фаридун, Афросиаб, «Хайрат-уль Аброр», «Садди Искандари», Искандар, Аристотель,*

“Tarixi muluki Ajam” Navoiyning Eron shohlari xoronikasi tasvirlangan asaridir. “Tarixi muluki Ajam”da odil shohlar, davlat, zolim hukmdorlar haqida ma’lumot berish bilan birga ular haqida o‘z fikrlarini ham bayon qiladi. Asarda Eron hukmdorlarini to‘rtta sulolaga ajratdi, sulolaning mashhur va ko‘zga



ko‘ringan, adolatliligi bilan shuhrat topgan yoki zolimligi bilan tillarda doston bo‘lgan shohlar keltirilgan. Xususan, Kayumars, Hushang, Tahmuras, Jamshid, Fraidun, Manuchebr, Navdar, Afrosiyob kabilar shular jumlasidandir.

Navoiyning o‘zi ham buyuk davlat arbobi bo‘lib, xalq hayoti va faoliyati bilan doimiy qiziqqan, xalq dardiga Malham bo‘lib kelgan. Xalqning turmushida davlat, hukmdorning ro‘lini to‘g‘ri anglab yetgan. Mutafakkir o‘z do‘sti, zamondoshi temuriyzoda Husayn Boyqaroga ko‘plab to‘g‘ri maslahatlarini bergan. “Xamsa”dagi “Hayrat-ul abror”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida ham hukmdorlar – podshohlar haqida keng to‘xtalgan. O‘z orzusidagi adolatli hukmdorlarni keltirib o‘tgan. Asarning o‘ziga oxirida o‘ziga xos tarzda masnaviy beradi va masnaviyda shunday deydi:

Burunroq solib turfa bunyod anga.

Berib zikr obou ajdod anga.

Surub nukta sultonlar ahvolidin,

Hikoyat qilib xonlar ahvolidin<sup>29</sup>.

“Tarixi muluki Ajam”da Eron sulolalarini to‘rttaga bo‘lgan bular:

1. Peshdodiylar
2. Kayoniylar
3. Ashkoniylar
4. Sosoniylar<sup>30</sup>

Iskandar nisbatida ixtilof ko‘ptur. Ba’zi aii Dorob o‘g‘li debdurlar, andoqki Dorob zikrida o‘tti. Va Banokatiyda va «Devonun-nasab» kitobidin mundoq naql qilibdurkim, Iskandar Xurmusi Rumny o‘g‘lidurkim, Xurmus otasi Lafti binn Yunon binni Torax binni Yefas binni Nuhdur. Va aning umrini ming olti yuz yil debdurlar va Zulqarnaynkim, aning laqabidur, vajhi tasmiyasin mundoq debdurlarkim, ul zamonda ming yilni bir qari der ermishlar. Iskandar “Tarixi muluki Ajam”da o‘ttiz ikki marta eslangan. Uning Eron davlati tarixidagi o‘zni bayon qilingan<sup>31</sup>. Bundan tashqari asarda berilishicha Iskandarning otasi Bozur binin Albon bo‘lgan va Iskandariya podshohi edi deyiladi. Tarixiy manbalar orqali biz uni FilippII sifatida taniymiz. Onasini esa Afliyun binni Nuqo deyilgan. Biz uni Olimpiada deb bilamiz. Ikkisi o‘rtasida tug‘ilgan farzand – Iskandar (Aleksandr) edi. U kichikligidan bilimli, aqlli va chabdash bo‘lib voyaga yetadi. Bunda uning ustozlarining o‘rni beqiyosdir.

<sup>29</sup> Navoiy A. “Tarixi muluki Ajam” 29-bet

<sup>30</sup> Navoiy A. “Tarixi muluki Ajam”

<sup>31</sup> Navoiy A. “Tarixi muluki Ajam” 10-bet



Dastabki zafarlarini ona yurtida boshlagan Aleksandrning katta zafarlari otasi mulklarini egallashi edi. Asarda Aleksandr o‘ttiz olti yil umr ko‘radi va hukmdorligi o‘n yil davom etadi deb beriladi. Biz esa tarix kitoblaridan uni o‘ttiz uch yil yashaganini va hukmdorligini o‘n uch yil deb beriladi. Otasining o‘li, idam so‘ng taxtni egallaydi, o‘ziga tegishli barcha hududlarni egallab, Misrga yo‘l oladi, Misr egallab o‘zini hukmdor deb e‘lon qiladi. Mashhur Issa, Gavgamela janglari orqali Osiyo qit‘asiga kirib keladi. O‘sha paytlarda Osiyodagi eng yirik va qudratli davlat Ahamoniylar davlati edi. Uning hukmdori Doro III bo‘lib, ikki o‘rtada bir qancha janglar bo‘lib o‘tadi. Natijada Aleksandr Kichik Osiyo, Fors, O‘rta Osiyo, Hindiston kabi yirik hududlarni egallaydi. Uning nomiga “Buyuk” nomi qo‘shilib, tarixdagi eng mashhur nomlardan biriga aylanadi. Hayoti va o‘limi turli tortishuv va baxslarga to‘la bu tarixiy shaxsni Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy va savdo aloqalarini yuksaltirishga xissa qo‘shgan hukmdor sifatida ham taniymiz. Chunki Aleksandr va yunon-makedon qo‘shinlarining Osiyoga bosqini natijasida ellinistik madaniyat hududlarimizga kirib keldi va ikki o‘rtada munosabatlar kuchaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy A. “Tarixi muluki Ajam”
2. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi, I kitob [Matn] / A.S. Sagdullayev. - Toshkent: «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2021. - 624 b.
3. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/turklad/issue/37638/414682>
4. [https://www.researchgate.net/publication/325878997\\_ALISHER\\_NAVOI\\_YNING\\_TARIXI\\_MULUKI\\_AJAM\\_ASARIDA\\_ZOLIM\\_SHOHLAR\\_TASVIRI](https://www.researchgate.net/publication/325878997_ALISHER_NAVOI_YNING_TARIXI_MULUKI_AJAM_ASARIDA_ZOLIM_SHOHLAR_TASVIRI)

